XALQ DEPUTATLARI UCHTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-5-026-14-202-K/24 Uchtepa tumani

Uchtepa tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini kiritish va qo‘llash yuzasidan, xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmonining 1-bandi 2-xat boshiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun daha, massiv va mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligi, 2025-yil O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentining Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni hisobga olib, tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan

olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan kiritilgan taklifi ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27-moddasi va Soliq kodeksiga asosan “2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun 105078-son bilan 15 kun muddatga “Regulation.gov.uz” elektron tizimiga joylashtirilganligi hamda ushbu qaror loyihasi bo‘yicha takliflar kelib tushmaganligi inobatga olinsin.

4. Uchtepa tumanida jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy Soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llanilib:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni miqdori 2-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Uchtepa tumani soliq inspeksiyasi **(G.Dosmuxamedov)**ga:

ushbu qarorni sifatli darajada ijrosini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Uchtepa tumani soliq inspeksiyasi tomonidan byudjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, Soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatilishi uchun xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

7. Uchtepa tumani hokimligi va tuman soliq inspeksiyasi, mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo‘yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

8. Xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining 2024-yil 4-yanvardagi “Uchtepa tumanida 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-86-3-14-202-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan kelib chiqqan nizolar sud tartibida hal qilinishi belgilansin.

11. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(J.Karimov)** va Uchtepa tumani hokimining birinchi o‘rinbosari **(J.Alimdjanov)** zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



USMANOV ANVAR BAXRAMOVICH

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-026-14-202-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Zona	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 gektar uchun		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 kv.m uchun	
			Yer solig‘i stavkasi (mln.so‘mda)	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent
1	Abdulla Qodiriy	3	184	1,5	1206	1,15
2	Abdulla Qodiriy	4	122	1,4	948	1,2
3	Alixonto‘ra Sog‘uniy	5	62	1,3	678	1,25
4	Yangiyo‘l	5	62	1,3	678	1,25
5	Bekobod	2	238	1,6	1471	1,1
6	Bekobod	4	122	1,4	948	1,2
7	Beshqayrag‘och	3	184	1,5	1206	1,15
8	Beshqayrag‘och	4	122	1,4	948	1,2
9	Birlik	4	122	1,4	948	1,2
10	Bog‘iston	4	122	1,4	948	1,2
11	Bog‘iston	5	62	1,3	678	1,25
12	Bog‘ichinor	3	184	1,5	1206	1,15
13	Bog‘ichinor	4	122	1,4	948	1,2
14	Bog‘ichinor	5	62	1,3	678	1,25
15	Bog‘obod	4	122	1,4	948	1,2
16	Vatan	4	122	1,4	948	1,2
17	Vatan	5	62	1,3	678	1,25
18	Vatanparvar	4	122	1,4	948	1,2
19	Vatanparvar	5	62	1,3	678	1,25
20	Guzar	1	298	1,7	1471	1,1
21	Guzar	4	122	1,4	948	1,2
22	Davlatobod	3	184	1,5	1206	1,15
23	Davlatobod	4	122	1,4	948	1,2

24	Degriz	3	184	1,5	1206	1,15
25	Degriz	4	122	1,4	948	1,2
26	Jarbuloq	2	238	1,6	1471	1,1
27	Jarbuloq	3	184	1,5	1206	1,15
28	Jarbuloq	4	122	1,4	948	1,2
29	Jurjoniy	4	122	1,4	948	1,2
30	Zulfizar	2	238	1,6	1471	1,1
31	Zulfizar	4	122	1,4	948	1,2
32	Ibrat	3	184	1,5	1206	1,15
33	Ibrat	4	122	1,4	948	1,2
34	Istirohat	2	238	1,6	1471	1,1
35	Istirohat	4	122	1,4	948	1,2
36	Katta Qa’ni	4	122	1,4	948	1,2
37	Katta Qa’ni	5	62	1,3	678	1,25
38	Qoziguzar	4	122	1,4	948	1,2
39	Qoziguzar	5	62	1,3	678	1,25
40	Qor Yog‘di	2	238	1,6	1471	1,1
41	Qor Yog‘di	4	122	1,4	948	1,2
42	Quyi Darxon	2	238	1,6	1471	1,1
43	Quyi Darxon	3	184	1,5	1206	1,15
44	Quyi Darxon	4	122	1,4	948	1,2
45	Ko‘ksaroy	2	238	1,6	1471	1,1
46	Ko‘ksaroy	3	184	1,5	1206	1,15
47	Ko‘ksaroy	4	122	1,4	948	1,2
48	Ko‘ksaroy	5	62	1,3	678	1,25
49	Ko‘kcha Oqtepa	2	238	1,6	1471	1,1
50	Ko‘kcha Oqtepa	3	184	1,5	1206	1,15
51	Ko‘kcha Oqtepa	4	122	1,4	948	1,2
52	Qo‘rg‘ontepa	3	184	1,5	1206	1,15
53	Qo‘rg‘ontepa	4	122	1,4	948	1,2
54	Ko‘rkamobod	2	238	1,6	1471	1,1
55	Ko‘rkamobod	4	122	1,4	948	1,2
56	Ko‘xna Cho‘ponota	3	184	1,5	1206	1,15
57	Ko‘xna Cho‘ponota	4	122	1,4	948	1,2
58	Latifguzar	2	238	1,6	1471	1,1
59	Latifguzar	3	184	1,5	1206	1,15

60	Latifguzar	4	122	1,4	948	1,2
61	Nayman	4	122	1,4	948	1,2
62	Nishabariq	3	184	1,5	1206	1,15
63	Nishabariq	4	122	1,4	948	1,2
64	Nurobod	4	122	1,4	948	1,2
65	Nurobod	5	62	1,3	678	1,25
66	Oqmachit	4	122	1,4	948	1,2
67	Paxtakor	3	184	1,5	1206	1,15
68	Paxtakor	4	122	1,4	948	1,2
69	Paxtakor	5	62	1,3	678	1,25
70	Taqachi	2	238	1,6	1471	1,1
71	Taqachi	4	122	1,4	948	1,2
72	Tinchlikobod	4	122	1,4	948	1,2
73	O‘rikzor	2	238	1,6	1471	1,1
74	O‘rikzor	4	122	1,4	948	1,2
75	O‘rikzor	5	62	1,3	678	1,25
76	O‘tkir	2	238	1,6	1471	1,1
77	O‘tkir	4	122	1,4	948	1,2
78	Uchtepa	2	238	1,6	1471	1,1
79	Uchtepa	4	122	1,4	948	1,2
80	Farxod	4	122	1,4	948	1,2
81	Xayratiy	3	184	1,5	1206	1,15
82	Xayratiy	4	122	1,4	948	1,2
83	Xojiobod	2	238	1,6	1471	1,1
84	Xojiobod	4	122	1,4	948	1,2
85	Xondamir	3	184	1,5	1206	1,15
86	Xondamir	4	122	1,4	948	1,2
87	Xuroson	3	184	1,5	1206	1,15
88	Xuroson	4	122	1,4	948	1,2
89	Xurshid	1	298	1,7	1471	1,1
90	Xurshid	2	238	1,6	1471	1,1
91	Xurshid	4	122	1,4	948	1,2
92	Chamanzor	2	238	1,6	1471	1,1
93	Chamanzor	4	122	1,4	948	1,2
94	Chamanzor	5	62	1,3	678	1,25
95	Katta Cho‘ponota	4	122	1,4	948	1,2
96	Katta Cho‘ponota	5	62	1,3	678	1,25

97	Sharq Guli	3	184	1,5	1206	1,15
98	Sharq Guli	4	122	1,4	948	1,2
99	Sharq Yulduzi	3	184	1,5	1206	1,15
100	Sharq Yulduzi	4	122	1,4	948	1,2
101	Shirin	4	122	1,4	948	1,2
102	Shirin	5	62	1,3	678	1,25
103	Shofayzibog‘i	3	184	1,5	1206	1,15
104	Shofayzibog‘i	4	122	1,4	948	1,2
105	Shofayzibog‘i	5	62	1,3	678	1,25
106	Shaftolizor	4	122	1,4	948	1,2
107	Yusuf Sakkokiy	2	238	1,6	1471	1,1
108	Yusuf Sakkokiy	4	122	1,4	948	1,2
109	Yusuf Sakkokiy	5	62	1,3	678	1,25
110	Foziltepa	4	122	1,4	948	1,2
111	Foziltepa	5	62	1,3	678	1,25
112	Zarafshon	2	238	1,6	1471	1,1
113	Zarafshon	4	122	1,4	948	1,2
114	Zarafshon	5	62	1,3	678	1,25
115	Tepaqo‘rg‘on	3	184	1,5	1206	1,15
116	Tepaqo‘rg‘on	4	122	1,4	948	1,2
117	Zargarlik	3	184	1,5	1206	1,15
118	Zargarlik	4	122	1,4	948	1,2
119	Hamdo‘st	4	122	1,4	948	1,2
120	Hamdo‘st	5	62	1,3	678	1,25
121	Diydor	5	62	1,3	678	1,25
122	Diyorobod	5	62	1,3	678	1,25

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-026-14-202-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari		Yer osti suv manbalari	
		Koeffit –siyent	Soliq stavkasi *(1000 litr uchun)*	**Koeffit -siyent**	Soliq stavkasi *(1000 litr uchun)*
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,0	700,0	1,0	850,0
2	Sanoat korxonalari	1,0	700,0	1,0	850,0
3	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	1,0	110,0	0,0	135,0
4	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,0	100,0	1,0	100,0
5	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1,0	15 000,0	1,0	15 000,0
6	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1,0	38 000,0	1,0	38 000,0

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-026-14-202-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	Koeffitsiyent	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh	1.1	6600 so'm/tonna*
2	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,1	5, biroq 6 160 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
3	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	1,1	5, biroq 4620 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
4	Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o'g'itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xom ashyosi	1.1	3,5, biroq 6 160 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,1	5, biroq 15 950 so'm/tonna dan kam bo'lmagan
6	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,1	5, biroq 10 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
6	Marmar	1,1	5, biroq 20 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan
7	Granitlar	1,1	5, biroq 30 000 so'm/kub.m dan kam bo'lmagan